



UDK:811.512

Malika ABDULXAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi, PhD
E-mail: abdulkhaeva.malika@gmail.com

F.f.d N.Sa'dullayeva taqrizi asosida

O'ZBEK TILI SINONIMLARI IZOHLI LUG'ATLARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI VA ULARNI TIZIMLASHTIRILGAN VARIANTINI YARATISHDAGI QO'SHIMCHA TAVSIYALAR

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tili sinonimlari izohli lug'atlarining o'xshash va farqli jihatlari va ularni tizimlashtirilgan variantini yaratishdagi qo'shimcha tavsiyalar xususida boradi. Shuningdek, sinonimlar lug'atlarda qay tartibda berilganligi tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** sinonim, sinonimiya, sinonimik qator, izohli lug'at.

SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF EXPLANATORY DICTIONARIES OF UZBEK LANGUAGE SYNONYMS AND ADDITIONAL RECOMMENDATIONS FOR CREATING THEIR SYSTEMATIZED VERSION

Abstract

This article discusses the similarities and differences among the explanatory dictionaries of Uzbek language synonyms and provides additional recommendations for developing their systematized version. It also analyzes the order in which synonyms are presented in dictionaries.

Key words: synonym, synonymy, synonymic series, explanatory dictionary.

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЕЙ СИНОНИМОВ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО РАЗРАБОТКЕ ИХ СИСТЕМАТИЗИРОВАННОЙ ВЕРСИИ.

Аннотация

В статье рассматриваются сходства и различия толковых словарей синонимов узбекского языка, даются дополнительные рекомендации по разработке их систематизированной версии, а также анализируется порядок представления синонимов в словарях.

Ключевые слова: синоним, синонимия, синонимический ряд, толковый словарь.

Kirish. O'zbek tilidagi sinonimlarning izohli lug'atini takomillashtirish orqali sinonimik qatorning barcha a'zolarining izohlari batafsil keltirilishiga, ulardagi ma'no yaqinligining o'ziga xos jihatlari ajratishga imkon yaratishi juda muhimdir. Ushbu takomillashtirish natijasida o'zbek tilida ham ingliz tilidagi kabi kvazisinonimlarni tabiati, xususiyati va funksional jihatlari aniqlanishiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Shu kungacha o'zbek tilida sinonimlarning tadqiqi keng miqyosda olib borilgan bo'lsada, yuqoridagi fikrlar va ularga munosabatlar turli tuman ekanligiga qaramasdan, yaqin yillargacha faqatgina o'zbek lug'atchiligidagi sinonimiya bag'ishlangan yagona jiddiy asar A.Hojiyevga tegishli deb qarab kelingan. Asar nashr qilinganiga qariyb yarim asr bo'lganligi va bu vaqt mobaynida jamiyat tubdan o'zgarganligi, ya'nikim O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilingani nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va siyosiy sohalarga, balki tilimizning leksikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada 2022-yilga kelib, 1500 dan ortiq sinonimik qatorni o'z ichiga olgan 2 jildli "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati"[1] yaratildi. Keyinroq ushbu lug'atning ixchamlashtirilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"[2] nomli shakli umumta'lim maktablari hamda akademik litseylar o'quvchilari foydalanishiga moslashtirilgan holda nashr qilindi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Hozirgi kungacha o'zbek tilshunosligida sinonimlar izohiga bag'ishlab yozilgan va mukammal deb qaraladigan manbalar soni ikkita ekanligini hisobga olib, ularda sinonimlar qay tarzda tizimlashtirilganini ko'rib tahlil qilamiz.

O'zbek lug'atchiligidagi sinonimiya bag'ishlab yozilgan ilk asar deb hisoblanadigan A.Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»ni tahlil qilar ekanmiz, sinonimlar quyidagi tartibda berilganligini guvohi bo'lamiz. Ot so'z turkumiga oid "g'am" so'zining ushbu lug'atda berilishini ko'rib chiqamiz:

"G'am, tashvish, qayg'u, kulfat, musibat, alam, anduh, mung, dog'. Baxtsizlik, judolik tufayli sodir bo'ladigan ruhiy azob. G'am, tashvish juda ko'p qo'llanadi. Qayg'u nisbatan kamroq qo'llanadi. Kulfat, musibat ma'noni kuchli darajada ifodalaydi. Anduh eskirgan, kitobiy. Ko'pincha g'am so'zi bilan birga juft so'z holda qo'llanadi. Mung eskirgan, kitobiy.

G'am qo'rquv titrog'i bilan ezilgan Gulnor ko'rpaga o'ralib o'yladi: «Nega kecha qochmadim!» (Oybek.) Bolaga hozir hyech narsa kerakmas, uning kichkina vujudi inson, hayotidagi eng og'ir qayg'u – onadan ayriliq qayg'u bilan to'lgan, unga ona kerak, mehribon ona! (P.Tursun.) Inson bolasi ota-onasidan bemahal ajralar ekan, unga bundan og'ir kulfa t yo'q (P.Tursun.) Maktab zalining eshigi tepasiga qora bayroq osilgan. Go'yo sovuqdan muzlab qolgandek asta silkinayotgan jonsiz va tilsiz qora bayroq butun olam tepasiga qanot yoygan butun kunni, insoniyatning qalbiga cho'kkan musibat va g'amni ifodalar edi (P.Tursun). Hurzod va kichik go'daklarining alami dani bir haftaga yetmay vafot etdi (Yu.Sulton). Men siyoh baxt dunyoga kelmagan bo'lsam edi, sizga munchalik kulfa tlar, insonchilik anduhlar yo'q edi (A.Qodiriy). Uning ovozida sevgi, sevgidan ham ko'proq mung, alam ohanglari yangradi (M.Ismoilov). Farzand dorgi niko'raverib zada bo'lib qolgan bechora ona ko'zining oqu

qorasi, yakka-yu yagona qizini tishida tishlab katta qildi (X.Seitov)"[3].

Yuqoridagi g'am so'zining izohlaridan ko'rinib turibdiki, har bir sinonimning izohlari to'liq, birining o'rnida boshqasining ishlatilishi mumkinligi haqida ma'lumot berilmagan, shuningdek, anduh so'zining g'am so'zi bilan birga juft so'z holida qo'llanilishi berilgan, ammo g'am alam tarzida qo'llanish holati xususida so'z yuritilmagan. Shuningdek, g'am so'zining sinonimlari o'rtasidagi yaqinlik, ishlatilishidagi farqlilik, hamda ularning uslubiy jihatdan qo'llanilishi yuzasidan izoh va ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi, chunki aynan sinonimlar lug'atining foydalanishdagi muhim jihati shulardan iborat bo'lishi lozim edi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, g'am so'zining sinonimlari va izohlaridan keyin o'zbek adiblarining asarlaridan misollar keltirilgan bo'lib, ularga ham biroz izoh, sharh berib ketilsa, maqsadga muvofiq, hamda tushunarli bo'lgan bo'lar edi.

Sifat so'z turkumiga oid chiroyli so'zining izohlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning izohlarida qaysi biri insonga nisbatan, qaysi biri jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanilishi bo'yicha ma'lumot berilganga o'xshaydi, vaholanki, ularning batafsil izohi, uslubiy jihatdan o'zaro farqlari, hamda ma'no jihatdan yaqin yoki uzoqligi hususida izohlar berilmagan:

"Chiroyli, go'zal, husndor, husnli, xushro'y, ko'hlik, ko'rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol. Husni odatdagidan ortiq, xunukning aksi. Chiroyli stilistik jihatdan neytral. Bu so'z odamga, boshqa jonli narsalarga, shuningdek, jonsiz narsalarga nisbatan ham qo'llanaveradi. Go'zal odamga va jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanadi. Bu so'zda belgi darajasi kuchli. Husndor, xusnli so'zlari nisbatan kam qo'llanadi. Xushro'y, ko'hlik faqat odamga nisbatan qo'llanadi va «yoqimlilik» ottenkasi bor. Barno, suluv, zebo so'zlari ham odamga nisbatan qo'llanadi. Suluv – kam qo'llanadi. Zebo kitobiy. Ko'rkam asosan jonsiz narsalarga, kam darajada odamga nisbatan qo'llanadi.

Chiroyli saman otning jilovini tutib, egasini qo'ltiqlab yerga tushirdi (Oybek). «O'ziyam poshnalarning novchasi ekan».- dedi O'ktam qizning chiroyli oyoqlariga ko'z tashlab (Oybek). Uns...qo'llari ish tikarkan, ko'zlaridan oqqan qaynoq tomchilar quyulib, uning go'zal yuzini kuydiradi. (Oybek). Shunaqa chiroylimi? - dedi Elmurod o'ylamay va ko'z oldi jimirlashdi. Bunday go'zalning qanaqa bo'lishini tasavvur qilolmadi (P.Tursun). Uydan O'rmonjonning xotini – to'lagini, xiyla husndor juvon chiqib, Sidiqjon bilan ko'rishdi-da, qaytib bir lagan tut bilan non olib chiqdi... (A.Qahhor). Bosh yalang, yalang oyoq, ko'ylagi yirtiq xotinning yuziga iztirob shunday chang solgan ediki, yigitlar uni Mishaning onasi kechagi ko'rkam, husnli ayol ekanini bazo'r farq qildilar (Oybek). U otasining yordamchisi xushro'y yigit Rahimbergan mahramni sevib qolgan, ammo buni hyech qachon, hyech kimga izhor qilmagan edi (J.Sharipov). Siz qanchalik ko'hlik, qanchalik... go'zal ekaningizni o'zingiz ham bilmaysiz, Saodat (O.Yoqubov). Ana o'shandan keyin ko'chada uchragan barno qizlarga o'z ko'zim bilan emas, o'g'limning ko'zi bilan qaraydigan bo'lib qoldim («Mushtum»). Biram suluv, biram oyjamol. Lab ustida jajjigina xol. – Onasining o'zi bo'libdi (H.G'ulom). Ko'klam qizi yuz ochdi, musaffo bezanibdur, Egnida yashil jomasi, zeybe bezanibdur (Habibiy). Hayot har qachongidan ko'ra ko'rkam va yorqin edi, dunyoda ayriliq, qayg'u, alam, urush, qon, iztirob yo'q edi (Shuhrat). Turg'un uning husnini zimdan tomosha qilardi. O'sha kuni saodat burungidan hamlat o'fati ko'rindi unga (O.Yoqubov). Anhor yoqasiga chiqqandim yolg'iz, Uchradi yo'limda sohibjamol qiz (Shotursun G'ulomov). – O, shunday sohibjamol qiz choy taklif qilar emishu, qanday nomard rad etarmish (X.Seitov)"[4].

Lug'at foydalanuvchisida ularning o'zaro farqi, gapda qo'llanilishida qanday so'z bilan birikib kelganda butunlay boshqa ma'no aks ettirishi e'tiborga olinmagan, shuningdek, izohda berilgan odamga nisbatan, jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanilishini dalillovchi misollar yetarli emas. Go'yoki olim asarlarda qo'llanilgan shu so'zlarni shunchaki misol tariqasida berganday ko'rinadi. Lekin shunga qaramasdan ushbu sinonimlarning izohli lug'ati ancha qimmatli manba hisoblanishiga sabab, sinonimik qatorni ilk ko'rinishlari, ularning qanday semantik xususiyatlariga ko'ra shakllanishi va ba'zi sinonimik qator a'zolarining o'xshash va farqli xususiyatlarini izohlanganligi keyingi tadqiqotlarni mukammal yaratilishi uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu lug'atdan avval o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati mavjud bo'lmaganligini hisobga olsak, lug'atni shakllantirish uchun ancha mehnat qilingan. Keyingi sinonimlarning izohli lug'atlarining yaratilishida katta mehnat qilinmagan degan fikrdan yiroqmiz, lekin shuni aytish joizki, hozirgi kunda nashrdan chiqqan lug'atlar aynan shu manbaga tayanib tadqiq qilinganligi mualliflarga nisbatan yengillik beradi.

A.Hojiyev muallifligida yozilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" dan so'ng yaratilgan 2 jildli "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati" hozirgi o'zbek tili uchun ahamiyatli bo'lgan sinonimik qatorlarni qamrab olgan. Mazkur lug'atga leksik sinonimlar, ularning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi so'zlarning ma'no nozikliklari, bu ma'noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o'ziga xosliklarini ko'rsatuvchi illyustrativ misollar kiritilgan"[5]. Bundan tashqari mualliflarning qayd etishiga ko'ra "Lug'at maqolalari sinonimik qatordagi bosh so'zning ilk harflari asosida alifbo tartibiga solingan. Har bir lug'at maqolasi quyidagilardan tashkil topgan: 1) sinonimik qator; 2) ushbu qator uchun umumiy bo'lgan ma'noning izohi; 3) qatordagi har bir so'zning ma'no nozikligi tavsifi (zarur bo'lganda); 4) nutqiy uslubga aloqasi; 5) nutqdagi faollik darajasi; 6) lingvokulturologik belgilari (milliy-madaniy ta'kid, erkak-ayol nutqiga xoslik kabi mavjud bo'lsa); 7) o'zbek adabiyoti namunalari olingan sinonimik qatordagi har bir so'zning tegishli ma'nosini dalillovchi misollar"[6]. Quyida shu yetti o'lchov lug'atda qay tarzda berilganini ko'rib chiqamiz:

Amal qilmoq, rioya qilmoq Biror odat-qoida, tartib, ko'rsatma doirasida ish tutmoq. Rioya qilmoq so'zida talab-qonunga bo'ysunish, itoat qilish ta'kidi qabariqroq ifodalangan.

"Kumushning go'zallik ta'rifini g'oyibona eshitib, og'zining suvi kelguchi xotinliq va xotinsiz orzumandlar "yotib qolg'uncha, otib qol!" so'ziga amal qililib, qutidomkiga sovchilarni turna qator yubora boshlag'an edilar. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. Agar haqiqiy qonunlarga amal qililganda, uni yo otish, yo umrlik surgun qilish shart edi. Cho'lpon, Kecha va kunduz. Biroq bu mahallaning shumtaka erkak bolalari "kelin chimchilash" degan eski odatga juda rioya qilishar ekan. Oybek, Tanlangan asarlar. – Tezroq tuzalib keting. Tartib intizomga rioya qililg, – deb chiqib ketdi. Sh.Xolmirzayev, Bodom qishda gulladi"[7].

Sinonimik qator a'zolariga berilgan izohda nutqiy uslubga aloqasi va nutqdagi faollik darajasi keltirilmaganligi ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, bu belgilar izohlanishi mualliflar tomonidan ta'kidlangan. Lug'atdagi sinonimlarni tahlil qilar ekanmiz, ba'zi sinonimik qator a'zolariga yetarlicha izoh berilmaganini guvohi bo'ldik. Shuningdek, berilgan misollarga izohlar mos kelmasligi ham kuzatildi. Bundan tashqari, sinonimik qator a'zosi bo'lgan rioya qilmoq so'zi lug'atda alohida R harfidan topib bo'lmaydi. O'zbek tilidan farqli o'laroq ingliz tilining sinonimlar lug'atida har bir sinonimik qator a'zosi alohida izohlarga ega bolib, ular ham alohida alfavitda joylashtirilgan.

Shunga qaramay, ba'zi sinonimik qator a'zolarida izohlarni to'liq berishga harakat qilinganligini ko'rishimiz mumkin:

“Inoq, ahil, qadrdon, totuv, ittifoq, qalin, apoq-chapoq O'zaro yaxshi, do'stona, iliq munosabatda bo'lgan. Ahil so'zida ayni ma'no inoq so'zidagiga nisbatan kuchli va u inoqqa nisbatan kamroq qo'llanadi, badiiylik bo'yog'i esa kuchli. Qadrdon so'zida munosabat belgisining darajasi ahil so'zidagidan ham kuchli, ma'no hajmi keng, oddiy so'zlashuvda ham ko'p kuzatiladi. Totuv so'zida bog'liqlik bilan bir qatorda “farovonlik-tinchlik” ta'kidi seziladi. Ittifoq so'zining mazkur ma'noda qo'llanishi chegaralangan, asosan, badiiy uslublarda ishlatiladi. Mazkur ma'no inoq-ittifoq juft so'zida yanada kuchli ifoda topadi. Qalin, apoq-chapoq so'zlari oddiy so'zlashuvga xos. Apoq-chapoq so'zi o'zaro yaqinlik ma'nosini qalin so'ziga nisbatan juda ochiq va aniq ifodalaydi”[8].

Har bir so'zga berilgan misollar soni ikkita va bu lug'atni hajmini oshib ketishiga sabab bo'lgan. Sinonimik qator

2.1-jadval. Sinonimlarning o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atlarida berilishi

O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. (A. Hojiyev)	O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. (N. Mahmudov tahriri ostida.)
ХУШБЎЙ, ХИДЛИ, МУАТТАР. Ёқимли хидга эга, хиди ёқимли. Хидли бу маънода маълум предметларнинг хидига нисбатангина қўлланади. Масалан, «хушбўй ичимлик» дейилади, лекин «хидли ичимлик» дейилмайди. Муаттар китобий. Меҳнат-у ғайрат-ла гўзал боғимга яхши ният билан кўчат экканман. Шодя шу меҳнатим кўшилган чокда яна х у ш б ў й хидга бурканса чаман (Ғайратий). Олимхон элликбошининг кўнглидагидай зиёфат: ...нодир таом, нодир мевалар, аччик х у ш б ў й чой, донгдор бойвачча билан суҳбат! (Ойбек.) Стол устидаги гулдонга ранг-баранг х и д л и гуллар солиб қўйилганди («Қизил Ўзбекистон»). Жовдираб турган кўзларини кўриб, ноилож рўмолчани хидладим. На атир, на бошка бирор м у а т т а р хид бор (М.Зайниддинова)[10].	“XUSHBO'Y, MUATTAR, SHIRIN, IFORLI Yoqimli hid taratadigan, yaxshi hidli. Xushbo'y so'zida belgi kuchli ifodalangan. Muattar so'zi poetik matnlarda ko'p uchraydi. Garchi xushbo'y so'zida hid ma'no uzvi bo'lsa-da, bu so'z muattar so'zi kabi ko'pincha hid so'ziga bog'lanib keladi. Shirin so'zi bu ma'noda hid bildiruvchi so'zlar bilan qo'llanadi. Iforli so'zi badiiy nutqqa xoslangan. Gavharshodbegim tojdor nevarasini bag'riga bosib ko'rishar ekan, undan x u sh b o' y may hidi kelayotganini sezdi. P.Qodirov, Chaqmoqday yaltillab so'ngan umr. Yozning shabbodasi daraxtlarni mehr bilan ohista silkitar, yerga g'arq pishgan mevalar dup-dup tushganda juda Shirin va x u s h b o' y hid bog'ni to'ldirardi. H.Ahmedova, Bobomning bog'i. Chaqaloqdan qandaydir m u a t t a r hid kelayotgandek, boshi aylanib ketdi. A.Namozov, Bir oqshom. Billur hovuzcha ichiga ikki kishilik par o'rin to'shalgan, oppoq choyshab tungi shabadada m u a t t a r hid tatatar edi. X. Do'stmuhammad, Shabada. Haqiqatan ham, bog'ning olmasi bir tarafi taram-taram qizg'ish, boshqa tarafi och yashil bo'lib yetilgan, yaqiniga borsa, boshni aylantirar sh i r i n isiyam gurkurab turardi. I.Sulton, Onaizorim. Polizga yetgach, o'zimni atir-upa do'koniga kirib qolgandek his etib, dimog'im yashnadi. Ammo, million marta afsuski, sh i r i n hid qorin to'ydimaydi. A.Obidjon, Mo'ttivoymisan, Mo'ttivoymisan? I f o r l i o'tlarga ko'milar, Tikilib qoladi osmonga. Sh.Rahmon”[11].

Yuqorida har ikkala tilshunoslarning yaratgan lug'atlari qay tarzda tizimlashtirilganini keltirib o'tdik. Ikkita lug'atni tahlil qilish natijasida quyidagi o'xshash va farqli jihatlar aniqlandi va olimlar tomonidan har bir sinonimik qator a'zosi uchun xos bo'lgan o'lchovlar ba'zan berilganligi va ba'zan berilmaganligi kuzatildi:


2.2-jadval. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atlarining o'xshash va farqli jihatlari

	O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. (A.Hojiyev)	O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. (N.Mahmudov tahriri ostida.)
sinonimik qator	+	+
sinonimik qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noning izohi	+	+
sinonimik qatordagi har bir so'zga xos xususiyatning ta'rifi	+/-	+/-
nutqiy uslubga aloqasi	+/-	+/-
nutqdagi faollik darajasi	+/-	+/-
lingvokulturologik belgilari	-	+/-
o'zbek adabiyoti namunalaridan olingan sinonimik qatordagi har bir so'zning tegishli ma'nosini dalillovchi misollar	+/-	+/-
yangi sinonimik qatorlar hosil bo'lganligi	+	+
yordamchi so'z turkumlari sinonimik qatorining berilganligi	-	+
ko'rsatkichda barcha sinonimlarni berilmaganligi	-	-

ko'rsatkichda sinonimik qator keltirilgan betning berilmaganligi	-	-
har bir sinonimik qator a'zosining alifbo tartibida joylashgan qismida to'liq izohlarini berish	-	-

Ingliz tilida sinonimlarga bag'ishlab yozilgan lug'atlarni tahlil qilib, o'zbek tilida sinonimlarning izohli lug'ati ham qaytadan tizimlashtirilishi kerak va bu borada quyidagi lug'at maqolachasini e'tiborga olish, mazkur tipdagi

lug'atlardan foydalanish o'quv jarayonida samarali natija beradi degan fikrni bildirib o'tishni lozim topdik va quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:



2.2-rasm. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atining tizimlashtirilgan variantini yaratishdagi qo'shimcha tavsiyalar

Xulosa. Bu kabi sinonimlar izohli lug'ati nafaqat sinonimlar ustida tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar uchun foydali bo'lishi, balki o'zbek tilini chet til sifatida o'rganuvchilar, chet tilidan o'zbek tiliga badiiy asar yoki she'r

tarjima qiluvchi tarjimonlar uchun ham birdek tushunarli, foydali va manfaatli bo'lishi lozim. Bu esa O'zbekistonda leksikografiya sohasini rivojlanishiga hissa qo'shishi hamda uni rivojlanishiga olib keladi degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. N. Mahmudov tahriri ostida. Ikki jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.505.
2. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B.512.
3. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – B.263.
4. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – B.223-224.
5. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri ostida. Ikki jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.13.
6. Yuqoridagi asar. – B.13.
7. Yuqoridagi asar. – B.47.
8. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. N. Mahmudov tahriri ostida. Ikki jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.253.
9. Yuqoridagi asar. – B.13.
10. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – B.217.
11. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri ostida. Ikki jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B.261-262.